

MEN YASHAYOTGAN OLAM



Bizning atrofimizdagi eng yaqin insonlar qarindoshlarimiz, yaqinlarimiz, qo'shnilarimiz, do'stlarimiz, sinfdoshlarimizdir. Ehtimol, ular orasida o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, tatarlar, ruslar, turkmanlar, tojiklar, qirg'izlar va boshqa millat vakillari bo'lishi mumkin. Balki, uzoq mamlakatlardan kelganlar, masalan, inglizlar, fransuzlar, nemislar yoki xitoyliklar ham bordir. Biz ular haqida nimalarni bilamiz?



1. Boshqa mamlakat yoki boshqa shaharda yashaydigan do'stingiz bormi?
2. Sizlar qanday muloqot qilasizlar? Xat yozishasizmi yoki qo'ng'iroqlashasizmi? Yana qanday muloqot vositalari bor?
3. Do'stlaringiz yoki tanishlaringizdan boshqa shahar yoki mamlakatlardagi hayot haqida qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldingiz?
4. Do'stlaringizga O'zbekiston haqida nimalarni gapirib bergan bo'ladingiz?



Boshqa mamlakatga borganimizda u yerda mehmon ekanligimizni tushunishimiz kerak. Biz o'sha yurt aholisiga bizga ko'rsatayotgan iltifotlari uchun hurmat va minnatdorchilik bildirishimiz, odobli bo'lishimiz va jamoat joylarida yurish-turish qoidalariga rioya qilishimiz lozim. Boshqa davlatga borganda mahalliy tilda salomlashish, xayrlashish va minnatdorchilik so'zlarini bilish odat tusiga kirgan. Shu bilan birga, o'sha mamlakatning urf-odatlari va xulq-atvor me'yorlari bilan tanishish ham foydalidir.



Sayohatga bormoqchi bo'lgan mamlakatingiz haqida nimalarni oldindan va qanday bilib olish mumkinligini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling. Sayohatga o'zingiz bilan nimalarni olishingiz kerakligi haqida o'ylab ko'ring.



1. Xarita bo'ylab virtual sayohatda qaysi shahar va mamlakatlarga tashrif buyurdingiz?
2. Qanday yangi ma'lumotlarni bilib oldingiz?
3. Siz qaysi mamlakatlarda bo'lgansiz yoki bo'lishni xohlaysiz?
4. Sayohat qilish foydali deb o'ylaysizmi? Fikringizni izohlang.



Ehtimoliy xorijlik do'stingizga xat yozib, unga O'zbekiston haqida so'zlab bering.

